

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## HAZRATI ALI HAQIDAGI O‘ZBEK VA TURK XALQ QISSALARINING VARIANT VA VERSIYALARI (“Muhammad Hanifa qissasi” misolida)

**Farruh Bafoyev**

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti doktoranti,  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),  
farruxshod@mail.ru*

**Annotatsiya:** Maqolada hazrati Ali haqidagi o‘zbek va turk xalq qissalari(jangnomalari)ning variant va versiyalari, ularning o‘ziga xos jihatlari mazkur turkumga kiruvchi “Muhammad Hanifa qissasi” misolida tahlil qilingan. Tahlil jarayonida ikki xalq versiyalaridagi g‘oyaviy-badiiy jihatlari, til va uslub masalasiga e‘tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** xalq qissalari, jangnomalar, varinat, versiya, hazrati Ali, Muhammad Hanifa, badiiy obraz.

**Аннотация:** В статье анализируются варианты и версии узбекских и турецких народных повести (джанганомы) о Хазрате Али, их специфика на примере «повести Мухаммада Ханафии», относящейся к этой категории. В процессе анализа уделяется внимание вопросу идейно-художественного аспекта, языка и стиля в двух национальных вариантах.

**Ключевые слова:** народные повести, джанганомы (военные хроники), вариант, версия, Хазрат Али, Мухаммад Ханифа, художественный образ.

Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodidagi turli xalqlarda tarqalgan, ijro etilgan va o‘qilgan asarlar uning iste’molchisi bo‘lgan hudud, aholining turmush tazi, dunyoqarashi, so‘zlashuv uslubi, leksikasi kabi omillar ta’sirida adaptatsiya jarayonini boshdan kechiradi. Natijada esa bir turdagi asarning syujet, obrazlar tizimi, uslub va leksika nuqtai nazarda turli xil ko‘rinishlari yuzaga keladi. Folklorshunoslikda bu hodisalar, ya’ni bir asarning turli ijrochilar repertuaridagi ko‘rinishiga variant, variantlariga qaraganda jiddiy farq qiluvchi, millatlararo tarqalgan, boshqa millat ijrochilari repertuaridagi ijroda ko‘zga tashlanuvchi shakllariga versiya deb atalishi barchaga ma’lum. Endi esa bu holatni hazrati Ali turkumidagi xalq qissalarining o‘zbek va turk xalqlari orasida tarqalgan variant va versiyalari misolida ko‘rib chiqsak.

O‘zbek va turk xalq folklorida hazrati Ali haqidagi xalq qissalari(turk folklorida mazkur janrga nisbatan “cenkname”, “gazavatname” atamaları qo‘llanadi)ning juda ko‘plab variant va versiyalari tarqalgan bo‘lib, ularni qo‘lyozma va toshbosma asarlar fondlarida turli nomlar bilan saqlanayotganini kuzatish mumkin. Shu o‘rinda bir holatni qayd etib o‘tish kerakki, xalq qissalarining nomlari har doim ham asarning qisqa va aniq mohiyatini aks ettirmaydi. Ba’zan umumiy mazmuniy mundarija nomga olib chiqilsa(masalan, o‘zbek folkloridagi “Hazrati Alining Imloqning mahv

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

etishlari”, “Ajdar devning hazrati Ali tomonidan halok etilishi”, “Maqsuraning hazrati Ali qo‘lida halok bo‘lishi”; turk folkloridagi “Gazâvât-1 'Aremrem Bin Mûsallat Cengidür-Zeyd'in Kaplandığıdur”, “Gazâvât-1 Kıssa-1 Mukaffa' Hazret-i Ali Keremullah Veche Gengidür”, “Kıssa-1 Seyiddü'l-Murselin Huneyn Gazası ve Şâhı Merdân'in Cengüdü”, ba’zan asar voqealarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydigan, ikkinchi darajali qahramon yoki joy nomlari ham nomga olib chiqiladi (“Bobo Ravshan”, “Zayn ul-arab”, “Havername”). Shu sababli muayyan bir asarning variant va versiyalarini turli manbalarda turlicha nomlar bilan atalganiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, birgina hazrati Ali va ular o‘g‘li Muhammad Hanafiyya sarguzashtlari aks etgan, umumiy mohiyati, syujeti qurilishi, obrazlar galeriyasi nuqtai nazardan bir xil bo‘lgan qissa ikki xalqda turli nomlar bilan atalib kelinganiga guvoh bo‘lish mumkin. Mazkur qissaning o‘zbek variantlari “Hazrati Alining imom Muhammad Hanifani xalos etishlari” yoki “Muzaffarni hazrati Muhammad Hanafiyya qo‘llarida o‘lmog‘i” deb atalsa, xuddi shu xalq qissasining turk folkloridagi versiyalari “Muhammed Hanifa beni Gatafan cengi” yoki “Hazâ Gazâvât-1 Muhammed Hanife Bâ Gazanfer Kafir - Aleyhi-Lane”(“Muhammed Hanife'nin Kafir Gazanfer - Allah'in Laneti Üzerine olsun- ile Gazasi”) kabi nomlar bilan yuritilib kelinganini kuzatish mumkin. E’tibor berilsa, asar nomlarida urushlarga nisbatan ba’zan “jang”, ba’zan “g‘azot” so‘zlari sinonim sifatida qo‘llanganini kuzatamiz. Turkcha manbalarida esa g‘azo so‘ziga yirik musulmon davlatlari yoki chegara bekliklarining islom dinini himoya qilish yoki tarqatish maqsadida musulmon bo‘lmaganlarga qarshi olib borgan muqaddas urush sifatida izohlanadi. Unda ishtirok etganlar g‘oziy, urushda halok bo‘lganlar esa shahid deb ataladi. Bu urushda qo‘lga kiritilgan mollar esa o‘lja deyiladi [wikipedia, 7]. Ammo diniy manbalarda g‘azot va sariyyalar farqlanadi. Ya’ni g‘azot Rasululloh sollallohu alayhi vassalam Madinaga kibar sahobalardan birini o‘rinbosar qilib qoldirganlaridan so‘ng o‘zlari harbiy qo‘shinga bosh bo‘lib, biror yerga bir maqsad bilan borishlari (unda jang bo‘lgan-bo‘lmaganidan qat’iy nazar) bo‘lsa, sariyya Rasululloh sollallohu alayhi vassalam biror maqsadni ko‘zlab, bir sahoba boshchiligida yuborgan mahfiy jangovor guruhdir (unda jang bo‘lgan-bo‘lmaganidan qat’iy nazar) [6;301]. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, qissalar nomida g‘azot, g‘ozovot, jang, jangnoma so‘zlari sinonim sifatida qo‘llansa, sariyyalar umuman qo‘llanilmaydi. Tadqiqotimizda biz bu ikki hodisani bir-biridan farqlash uchun mazkur atamalardan foydalanishni maqsad qildik.

Shunday qilib, hazrat Alining Rum Qaysari qizi Bibi Hanifaga uylanishi, Muhammad Hanafiyyaning tug‘ilishi, ulg‘ayishi, boshidan o‘tkazgan sarguzashtlari

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

hamda hazrat Ali va Muhammad Hanafiyya qahramonliklariga bag‘ishlangan bir qissa misolida o‘zbek va turk xalq qissalarining variant hamda versiyalaridagi o‘ziga xosliklarni ko‘rib chiqsak. Avvalo, mazkur qissalarning o‘zbek varinatlariga to‘xtalamiz. Mazkur asarning zamonaviy alifboda nashr bo‘lgan varianti xalq qissalariga xos an’anaviy boshlanma bilan boshlanadi: “Ammo roviyoni axbor va noqiloni osor andog‘ rivoyat qilurlarki, amir Shohimardon o‘shal vaqtiki, g‘azotdan keldilar. Rasul alayhissalom so‘rdilarki: “Yo Ali, nachuk qildingiz. O‘tgan voqeadan hikoyat qiling. Amir o‘tgan voqeani bir-bir bayon qildilar”[3;20]. Asarning O‘zR FA SHI Hamid Sulaymon fondida 2945-inventar raqami bilan saqlanadigan boshqa bir toshbosma varianti ham an’anaviy boshlanma bilan boshlansa-da, voqea tafsilotiga kirish biroz boshqacha kechadi. Unda hazrat Alining g‘azotdan qaytishi voqesi Muhammad alayhissalomga bir arabiy tomonidan bildiriladi: “Ammo roviyoni axbor va noqiloni osor andoq rivoyat qilurlarkim, bir kun Sayyidi olam sallallohu alayhi vasallam sahobalarg‘a pand-u nasihat qilib o‘lturub erdilar. Bir a‘robiiy keldi. Aydi: Yo Rasululloh, Amir Shohmardon Rum g‘azotidin keldilar”[5;28a]. Ushbu ikki varinatda Rum fathi g‘azot deb tilga olinsa-da, aslida sariyya jang ekanligi anglashiladi. Qissaning boshqa bir variantida esa Rum fathi chinakam g‘azot ekanligi haqida hikoya qilinadi. Ya’ni Rum g‘azotiga Muhammad alayhissalomning o‘zlari boshchilik qilganliklari haqida so‘z boradi: “Ammo roviyoni axbor va noqiloni osor va muhaddisoni dostoni bo‘stoni ko‘hinu xushu chunoni xirmoni suhan andog‘ rivoyat qilurlarkim, payg‘ambar (s.a.v.) chahoryorlar bilan jam bo‘lib borib shahri Rumni fath qilib, barcha Rum xalqini islomg‘a da‘vat qilib musulmon qildilar”[4;127a]. Ko‘rinib turganidek, qissani o‘zbek variantlaridagi boshlanmalar deyarli bir xil kechsa-da, syujet boshlanmasida ba’zi farqlar uchraydi. Qissasini turk versiyasida esa xalq qissalariga(ulardagi jangnomalarga) xos an’anaviy boshlanma ancha batafsil, badiiy jihatdan ko‘lamdor shaklda bayon etiladi. Payg‘ambar alayhissalom haqida so‘z borgan o‘rinlarda ularga salovat va duolar yo‘llanadi, sha’niga aytilgan maqtovlar, ya’ni na’tlar bilan matn yanada boyiydi: “Râviyân-ı ahbâr ve nâkilân-ı âsâr şöyle rivayet ederler: İnsanlığın önderi, cümle varlıkların iftihar kaynağı, diğer bir deyişle arifler sultanı, arındırıcı, yükseltici, seçilmiş Muhammed Mustafa - Allah'ın salat ve selamı üzerine olsun- bir gün sabah namazını kıldırmiş, mübarek sırtını mihraba vererek oturmuş, ahabla sohbet ediyor, onlara öğütler veriyordu. Ashap da onun baldan tatlı sözlerini can kulağıyla dinliyordu. Bu sırada bir kişi geldi, "Müjdeler olsun ya Resulullah, İmam Ali geliyor!"dedi”[1;413](“Xabar beruvchi roviylar va naql qiluvchi osorlar shunday rivoyat qiladilar: Bir kuni insoniyatning sardori, butun mavjudotning iftixor manbasi,

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

boshqacha aytganda, donishmandlarning sultoni, poklovchi, yuksaltiruvchi, tanlangan Muhammad Mustafo - Allohning rahmati va salomi bo‘lsin - bomdod namozini o‘qib, mehrobgga orqasini qo‘yib o‘tirar, sahobalari bilan suhbatlashib, ularga nasihat qilardilar. Sahobalar ham uning shirin so‘zlarini chin yurakdan tinglardi. Shu payt bir kishi kelib: “Xushxabar, yo Rasululloh, Imom Ali kelyapti!” dedi.”). Qissaning turk folkloridagi boshqa bir versiyasida esa an’anaviy boshlanma kelmay, voqea bayoni to‘g‘ridan to‘g‘ri payg‘ambar alayhissalomning masjidagi holatlaridan boshlanadi[2;347].

Shu o‘rinda qissalar boshlanma va tugallanmalari haqida ikki o‘g‘iz so‘z yuritsak. Ma’lumki, asarlardagi boshlanma va tugallanma ham badiiy asarning mohiyatini ochib berishda, anglashda muhim ahamiyatga ega. Hazrati Ali haqidagi xalq qissalarida ham bu holatni ko‘rish mumkin. Ular an’anaviy boshlanma va tugallanmaga ega. Har bir qissa “Ammo roviyoni axbor va noqiloni osor andog‘ rivoyat qiluvdurlarki” (“ammo xabar beruvchi roviylar va qadimgilardan naql qiluvchi shunday rivoyat qiladilarki”) jumlasini bilan boshlanib, “Mo‘minlar shod bo‘lib, munofiqlar g‘amgin bo‘ldi” jumlasini bilan yakunlanadi. Boshlanmadan murod voqeaning tarixiylikiga (ya’ni syujetning to‘qima emas, balki ko‘rib yoki eshitilgan tarixiy voqelik ekanligiga) ishora bo‘lsa, tugallanmadan maqsad mo‘minlarning, albatta, g‘alabaga erishishlari, yakunda shod bo‘lishlari, bir burchakda zimdan voqeani “Qani nima bo‘larkan?” deb kuzatib turgan ikkiyuzlamachi(munoqif)larning esa g‘alabadan g‘amda qolishlari ifoda etiladi. Mazkur an’anaviy boshlanmani hazrati Ali turkumidagi qissalarining turkcha versiyalarida ham kuzatish mumkin: “Râviyân-ı ahvâr ve nâkilân-ı âsâr şöyle rivayet ederler”[1;5] Ammo an’anaviy tugallanmalar qissalarning turkcha versiyalarida boshqacharoq shaklda keladi. Ular, odatda, xulosaviy fikrlar, salovat va duolar bilan yakun topadi: “Ömür fâni, yazı bakidir” (“Umr o‘tkinchi, taqdir esa abadiy”)[1;234], “Medine içinde bulunan müminler ferahlarından güldüler, münafıklar gamlarından öldüler”[2;189], “Ey dilekleri yerine getiren cümle dilekleri yerine getir! Âmin! Ya muin. Bi-hürmeti seyyidi’l-mürselin!” (Ey, duolarni ijobat qiluvchi, barcha orzularimizni ijobat qil. Omin. ) [1;278].

Endi yana “Muhammad Hanafiyya qissasiga qaytamiz. Shunday qilib, Rum fathida hazrati Ali podshoh Qaysarni yengib, uni musulmonlikka da’vat qiladi. Ammo Qaysar islomni qabul qilmaydi va qatl etiladi. Shohimardon saroyga kirib, u yerdan bir qizni asir qilib yurtga qaytadi va uni Muhammad (s.a.v.)ga topshiradi. (Asarning ba’zi variantlarida, xususan, zamonaviy alifbodagi nashridan o‘rin olgan qissada ham Qaysar bilan bog‘liq voqealar tilga olinmaydi[3;20]) Shu o‘rinda Muhammad alayhissalom va asira o‘rtasida suhbat ketadi: “Sayyidi olam sallallohu

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

alayhi vasallam aydilar: “Ey qiz, kimni qizidursan? Oting nimadur?”. Qiz aydi: “Qaysari Rumni qizidurman, otim Hanifa”. Rasul sallallohu alayhi vasallam aydilar. “Musulmon bo‘l. Har kimni xohlasang anga tazvij(nikoh) qilayin”[3;20]. Qiz esa bunga javoban uch istagi borligini, ular qabul qilinsa musulmon bo‘lishini aytadi: “Bir murodim uldurki, mani hazrati Aliga bering. Duvvum uldurki, qizingizga ayting, mani e’zoz qilsunlar, kundoshlik qilmasunlar. Sevvim uldurki, mandan o‘g‘il bo‘lsa, otini Muhammad Hanifa qo‘ying”[3;20]. Bu talablarni aytib bo‘lishi barobarida Jabroil alayhissalom vositasida vahiy keladi va Muhammad alayhissalomga qizning shartlarini qabul qilish buyuriladi. Shundan so‘ng payg‘ambar alayhissalom qizga talablari qabul qilinganini aytadi va qiz musulmon bo‘lib, hazrati Aliga nikohlanadi. Qissadagi bu tafsilotlar qissaning turk versiyasida ancha batafsilroq bayon qilinadi. Xususan, Hanifa uchinchi sharti sifatida o‘g‘il farzandi bo‘lishini va ismini Muhammad qo‘yilishini so‘raydi. Bu orqali Hanifaning Allohning iznida bo‘lgan ishlarni ham bandasidan talab etilayotgani urg‘u qaratiladi. Bunga javoban esa payg‘ambar alayhissalom dastlabki ikki shartini qabul qilishlarini, ammo uchinchi, ya’ni farzandi masalasi Alloh iznida bo‘lishi aytadilar va o‘yga toladilar. Biroz vaqtdan so‘ng esa vahiy orqali uchinchi tilagi ham qabul qilinganining xabari keladi va qiz kalimai shahodatni aytib musulmon bo‘ladi, so‘ng hazrati Aliga nikohlanadi. Turk versiyasida nikoh to‘yidan keyin Muhammad alayhissalomning qizlari Fotimaga aytgan vasiyatlar ham keltiriladi: “Ya Fatima, Hanife Hotun`u hoşça tut, hem kendi evinde tut, başka evde olmasın. Zira ululuğuyula gelmiştir, cariye gibi görme”. Hazreti Resul ne dediyse Hazreti Fatima ömrünün sonuna kadar öyle yaptı.[1;414] Qissaning O‘zR FA SHI da saqlanadigan bir qo‘lyozma variantida ham ushbu vasiyat haqida tilga olinadi va unda hazrati Fotimaning munosabati ham keltiriladi: “(Muhammad (s.a.v.) Madinaga borg‘andin so‘ng Bibi Fotimani chorlab aydilar: Ey farzand, Bibi Hanifag‘a mehribon bo‘lub, ko‘nglini ovlab og‘ritmagin, dedilar. Ammo Fotimai Zahro otalaridin bul so‘zni eshitib, Bibi Hanifani quchoqlab, “Xudoyi taolo qiyomatlik dugona ato qildi” deb ko‘p navozishlar qildilar”[4;128a].

Shunday qilib, oradan vaqt o‘tib, Rum Qaysari qizi Hanifa o‘g‘il farzand ko‘radi va uning ismini Muhammad qo‘yishadi. Onasining ismini qo‘shib uni Muhammad Hanifa deb atashadi. Oradan yillar o‘tadi. Muhammad Hanifa o‘n ikki yoshga kiradi. Kunlardan bir kun shahardan chiqib sahroda ov qilishni istab qoladi. Bu istagini otasiga aytadi. Hazrati Ali ko‘ngli sayr istayotgan bo‘lsa, xizmatkor yigit Mubashshir (turk versiyasida Beshir) bilan qishloqqa borib don olib kelishini aytadi. Ikkovlon yo‘lga otlanishadi. Borib don olib, kechki payt uyga qaytishadi. Ammo Muhammad Hanifa kuchli charchoq va uyqu istagi tufayli sahroda biroz uxlab olishi,

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Mubashshirni esa ketaverishini aytadi. Tunda uyquga ketgan Muhammad Hanifa tong yorishganda uyg‘onadi, ammo shahar qaysi tomonda ekanligini bilmay, boshi og‘gan tomonga qarab ketadi. Uch kuncha yo‘l yurib, bir chodirni oldiga borib qoladi. Chodirga qarasa, ichida bir qiz(turk versiyasida bu qahramon Jamila ekanligi aytiladi) va bir kampir o‘tirardi. Muhammad Hanifa tasodifan ularning suhbatini eshitib biladiki, qiz malika bo‘lib, otasi sakson ming qo‘shin bilan hazrati Aliga qarshi urushga ketgan edi. Bildiki, dushmanining uyi oldida turibdi. Shu payt yigitning sharpasini ko‘rib qolgan kampir darhol tashqariga chiqib, yo‘lovchining kimligi bilan qiziqadi. Muhammad Hanifa o‘zining adashib qolganini aytadi. Ahvoldan xabar topgan qiz uni ichkariga taklif qiladi. Ichkariga kirgan Muhammad Hanifani ko‘rgan qiz oshiq-u beqaror bo‘lib, hushidan ketadi. Doya kampir yordamida hushiga kelgan qiz yigitga taom keltirilishini so‘raydi. Ammo Muhammad Hanifa taomdan bosh tortadi sababini esa quyidagicha izohlaydi: “Zeroki, erta bu xayma egasi birla urisharman. Agar taom yesam tongla anga nachuk tig‘ urarman”. Bu holat xalqimizdagi “Bir kun tuz yegan joyingga qirq kun salom ber” maqoli mazmunini esga soladi. Agar yigit dushmani Muzaffarni uyida taomlanganda, u bilan urisha olmasdi, tuz haqini ado etishi kerak bo‘lardi. Bu gaplarni eshitgan qiz va doya kampir Muhammad Hanifaga tahsin aytishadi. Bu orada chodirga qizning unashtirilgan yigiti - Muzaffar(turk versiyasida Gazanfer) keladi. Ikki orada jang ketadi. Alaloqibat Muhammad Hanifa uni o‘ldiradi. Qissaning turk versiyasida esa Muhammad Hanifa avval Gazanfer (ya’ni Muzaffar)ni musulmonlikka da’vat qiladi. Qabul qilmagandan keyingina o‘ldirishga majbur bo‘ladi. Bu voqeadan keyin amirzoda qiz hamda kampirga asli kimligini oshkor qiladi va natijada ikkalasi ham musulmon bo‘lishadi. Bu orada Muzaffar polvonning otasi Zarbil(turk versiyasida Tavitl) ikki ming lashkari bilan xayma oldiga qaytib keladi. Orada yana jang boshlanadi. Muhamamd Hanifa kofirlarning dodini beradi. Zarbil chodirdagi qizning otasi shoh Muhtashamga bo‘layotgan voqealarning xabarini beradi. Shoh Muhtasham ham sakson ming lashkari bilan keladi va bir paytning o‘zida tirbo‘ron boshlanadi. Amirzoda ko‘p joyidan yaralanadi, uzoq vaqt jang qilgandan so‘ng, shamshiri qo‘lidan tushib ketadi. Bu orada Muhammad alayhissalomga Jabroil vositasida vahiy kelib, yuz berayotgan hodisa xabari beriladi. Payg‘ambar alayhissalom hazrati Ali va imomzodalarni Muhammad Hanifaga yordam uchun jo‘natadilar. Farishtalar uzoqni yaqin qilib, ularni jang maydoniga yetkazishadi. Hazrati Ali maydonda cheksiz jasorat ko‘rsatadi. Dushman lashkarini ko‘pini qiradi, bir guruhi musulmon bo‘ladi, bir guruhi qochib ketadi. Jang tugab, hazrati Ali Muhammad Hanifa, imomzodalar, chodirdagi malika

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

va uning doya kampirini olib Madinaga qaytishadi. Muhammad alayhissalom bularning jasorati ofarin aytib, malikani Muhammad Hanifaga nikohlab beradilar.

Qissaning turkcha versiyasida ham voqealar deyarli shunday kechadi. Faqat ba’zi o‘rinlarda ayri-ayri jihatlari ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, o‘n ikki yosh (turk versiyasida o‘n yosh)ga yetgan Muhammad Hanifaning sahroga chiqishi istagi o‘zbek variantida ov qilish, ko‘ngilyozdi bir holat sifatida izohlansa, turk versiyasida hayotdan ma’no izlay boshlagan (Muhammad Hanifaning bu holati Buddaviylikdagi Siddixartxaning saroydan chiqishi va hayotdan mazmun izlay boshlashi tasvirini esga soladi), sarguzasht talab bir o‘spirin ruhiy holatining mahsuli sifatida izohlanadi: “Ömrüm on yaşını geçti, daha şehirden dışarı çıkmadım, ava gitmedim, çöle adım atmadım. Artık ata binmenin, kılıç kuşanmanın, sahraları temaşa etmenin vakti geldi!” deya düşündü” [1;416].

Bundan tashqari qissaning turk versiyasi obrazlar galeriyasining boyligi bilan ham ajralib turadi. Masalan, hazrati Alining topshirig‘i bilan don uchun qishloqqa borgan Muhammad Hanifa u yerda qishloqboshi Kahya, sahobalardan Ebu Yemama kabilar bilan ko‘rishadi, ular orasida suhbatlar bo‘ladi. Qolaversa, o‘zbek versiyasida mavjud bo‘lmagan obrazlardan hazrat Alining otboqari Qambar, sahobalardan Amr ibn Umayya, Muaz ibn Jabal, Gatafan qabilasi pahlavoni Saygam kabi epizodik qahramonlar ham qissa voqealar rivojida u yoki bu darajada ishtirok etishini kuzatish mumkin. Bu qahramonlar orqali qissa syujeti ancha boyiganiga guvoh bo‘lamiz.

Asarning turk versiyalaridagi yana bir o‘ziga xoslik qahramonning ichki, ruhiy holatini ifoda etuvchi monolog, Allohga munajatlarda ko‘rinadi. Masalan, ilk bora cho‘lga chiqqan, na boshi va na oxiri ko‘rinadigan bepayon sahroda bir necha kun adashib qolgan o‘spirin yigitning ruhiy holati, banda sifatida ojizligi quyidagi munajatda yaqqol ko‘zga tashlanadi: “Güçleri tükendi, Şehzade bir yere oturdu. Bir ah ekledi, gözleri yaşla doldu, “Ey hükmü hiç sona etmeyecek Padişah, ey öncesi olmayan Yaratıcı, bu çöl ortasında aç ve susuz kaldım, atım da zayıf ve bitkin düştü. Sen ki darda kalanları görür, işitir ve ellerinden tutarsın!” diye münacat eyledi” (“Kuchi, madori qolmagan Shahzoda bir joyga o‘tirdi. Oh chekdi, ko‘zlari yoshga to‘ldi: “Ey hukmronligi tuganmas, Sulton, ey avvali bo‘lmagan Yaratuvchi, bu cho‘lning o‘rtasida och, tashna qoldim, otim ham ojiz, charchagan. Sen musibatda qolganlarni ko‘ruvchi, eshituvchi va qo‘llaridan tutuvchisan...” - deb munajat qildi”). Bu kabi parchalar asarning o‘quvchi va eshituvchiga yanada o‘qimishli, ta’sirli bo‘lishini ta’minlaydi, badiiy estetik funktsiya bajaradi.

Qissaning o‘zbek va turk versiyalarida qahramon nomlarida ham ba’zi farqlar uchraydi. Masalan, asarning o‘zbek versiyasida Muhammad Hanifa cho‘lda chodir

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ichida uchratgan qahramon Mushtasham shohning qizi ekanligi haqida ma’lumot berilsa, turk versiyasida bu qiz arablarning Gatafan qabilasining sardorining qizi malika Jamila ekanligi oydinlashadi. Qolaversa, hazrati Alining quli Mubashshir turk versiyasida Beshir, Jamila beshikkerti qilingan yigit –Muzaffar turk versiyasida Gazanfer, otasi Zarbil turk versiyasida Tavit kabi nomlar bilan atalganini kuzatish mumkin.

Shunday qilib, hazrat Ali haqidagi qissalarning o‘zbek variantlari o‘zining qisqaligi, bayonchilikning ustunligi bilan farqlansa, turk versiyalari obrazlar galeriyasining boyligi, poetik jihatdan mukammalligi bilan ajralib turadi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, mazkur xulosalarga Muhammad Hanifa qissasining bir necha varinatlari asosida kelindi. O‘zbekiston va Turkiya fondlarida mazkur asarning yana o‘ndan ortiq variantlari borki, ularni matniy tadqiq qilish, zamonaviy alifboga tabdil qilish va ular orasidagi mumtoz varinatlarni aniqlash o‘zbek va turk folklorshunoslari oldidagi turgan navbatdagi muhim vazifalardan sanaladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hz. Ali Cenklari. (2017) Hazirlayan: Ahmet Özalp.–İstanbul.
2. Hazret-i Ali Cenklari. (2016). Hazirlayan: İsmail Toprak. –İstanbul.
3. Ҳазрати Али ҳақидаги қиссалар (1992). Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: С.Рафиддинов. –Т.:Ёзувчи.
4. O‘zR FA ShI. Hamid Sulaymon fondi, inv. № Q7507.
5. O‘zR FA ShI. Hamid Sulaymon fondi, inv. № T 2945.
6. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф (2022). Ислом тарихи. 1-китоб. –Т:“HILOL-NASHR”.
7. <https://tr.wikipedia.org/wiki/Gaza>